




O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

*XALQARO ILMYI-AMALIY ONLAYN
ANJUMAN MATERIALLARI*



2024-yil 16-aprel



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI: TA’LIM NAZARIYASI VA
AMALIYOTI**

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

ko'ra, grafologik tahlil to'liq bo'lishi uchun mutaxassislar quyidagilarga rioya qilishni tavsiya qiladilar, ya'ni matn yozish shartlari:

Qo'lyozma A4 formatidagi toza, chizilmagan varaqda yozilishi kerak;

yassi yuzaga ko'k sharikli qalam bilan qog'oz ostiga kamida uchta varaq qo'yib yozish zarur - bu bosim kabi xususiyatni hisobga olishga imkon beradi;

matn o'zboshimchalik bilan bo'lishi lozim: tayyor iboralarni qayta yozish yoki iqtibos keltirishda odam o'zini ko'proq nazorat qiladi. Grafologik tahlil uchun ichki va ongsiz jarayonlarni aniqroq aks ettiruvchi yozish erkinligi muhim;

bir nechta iboralar to'liq tahlil qilish uchun yetarli emas. Ideal holda, kamida ikki yoki uchta A4 varag'ida yozilishi shart;

mutaxassisning turli vaqtlar uchun qo'l yozuvi namunalariga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu shaxsiyatning rivojlanish dinamikasini hisobga olish va doimiy omillarni (kayfiyat, yomon sog'liq) o'zgarimas shaxsiy xususiyatlardan ajratish imkonini beradi. To'g'ri bajarilgan namuna olingandan so'ng, to'g'ridan-to'g'ri yozilganlarni talqin qilishga o'tish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Minikar.ru/uz/testy/grafologiya-grafologicheskaya-ekspertiza-grafologiya-i-praktika/
2. [Mikelekontu.ru/maqola/Qo'l yozuvi va inson xarakterini grafologik tahlil qilish.](http://Mikelekontu.ru/maqola/Qo'l_yozuvi_va_inson_xarakterini_grafologik_tahlil_qilish)
3. Xolmatova G., Lingvistik ekspertizada grafologiyaning roli// –Scientific Journal Impact Factor ISSN 2181-1784 VOL 1, ISSUE 3, 2021.
4. [Iia-rf.ru/Qo'l yozuvi tavsifi.](http://Iia-rf.ru/Qo'l_yozuvi_tavsifi) Qo'l yozuvi tahlili yordamida shaxsning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash. Grafologiya. Vaqt o'tishi bilan imzo o'zgaradi.
5. Inessa Goldberg. Qo'l yozuvi psixologiyasi
6. [Mikelekontu.ru/maqola/Misollar bilan qo'l yozuvi orqali belgilar tahlili.](http://Mikelekontu.ru/maqola/Misollar_bilan_qo'l_yozuvi_orqali_belgilar_tahlili) Grafologiya, qo'l yozuvi. Yozma harflar o'rniga bosma harflardan foydalanish.

LINGVOSTATISTIKA – TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY VA AMALIY SOHASI

Oydinniso Nasirdinova

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Tilshunoslikka miqdoriy tahlil metodi sifatida kirib kelgan lingvistik statistika til hodisalarini empirik shaffoflikda tadqiq etish imkonini beradi. Lingvostatistika til birliklarini hisoblash, ularni tartiblash va ma'lum tizim asosida tahlilga tortishni osonlashtiradi. Ayniqsa, fonetik, leksik va grammatik birliklarning og'zaki va yozma nutq shakllarida qo'llanish darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu metoddan foydalanish uchun lingvostatistikaning mohiyati, tarixi, o'zbek va jahon tilshunosligidagi natijalari hamda tamoyillarini o'rganish maqsadga muvofiq.

Kalit soʻzlar. *lingvostatistika, statistika, statistik usul, statistik tamoyil, statistik tahlil, chastota tahlili.*

Annotation. Linguistic statistics, introduced into linguistics as a method of quantitative analysis, makes it possible to study language phenomena in empirical transparency. Lingvostatistika makes it easy to count language units, sort them and analyze them based on a certain system. It is especially important in determining the level of use of phonetic, lexical and grammatical units in oral and written forms of speech. To use this method, it is appropriate to study the essence, history, results and principles of linguostatistics in Uzbek and world linguistics.

Key words. *linguostatistics, statistics, statistical method, statistical principle, statistical analysis, frequency analysis.*

Har bir tadqiqot ishida oʻrganilayotgan masalaning yechimi uchun aniq, bosqichma-bosqich va samarali metod – yoʻl, usulni tanlay olish tadqiqotchining asosiy vazifasidir. Bunda mantiq va falsafaning muayyan qonuniyatlari amaliy ahamiyat kasb etadi. Mavzuning aniqlanishi, zarur maʼlumotlarning toʻplanishi va maʼlum tizim asosida harakatlanish empirik tadqiqot metodlari (kuzatish, taqqoslash, oʻlchash, eksperiment), nazariy tadqiqot metodlari (abstraktlikdan konkretlikka koʻtarilish), empirik va nazariy tadqiqot metodlari (analiz va sintez, induksiya va deduksiya, modellashtirish, abstraktlashtirish va boshq.) [2; 9-10] asosida amalga oshadi. Fanlararo oʻzaro aloqalar ham tanlangan metodlar natijasida oʻz chegaralarini kesib oʻtadi. Bugungi kunda tilshunoslik sohasida yangidan-yangi va turlicha tadqiqot metodlari keng qoʻllanilmoqda. Jumladan, matn tadqiqida lingvostatistik metodning ommalashuvi lingvistik tahlil metodlari (fonetik, morfem, leksik, morfologik, sintaktik tahlil) natijalarining miqdoran tizimga solinishini, til birliklarining modellashtirishini, kompyuter lingvistikasi imkoniyatlariga yondashuvni, zamonaviy algoritmik maʼlumotlarning shakllanishini va korpus lingvistikasining rivojlanishini taʼminlaydi.

Lingvostatistika tilshunoslikning bir sohasi boʻlib, til materiallarini miqdoriy (statistik) usullar yordamida tahlil qilish bilan shugʻullanadi. Bu soha tilning turli jihatlarini, jumladan, soʻzlar va grammatik tuzilmalar tarqalishini, tilning evolutsiyasini, til variantlarining geografik tarqalishini va boshqalarni oʻrganadi. Lingvostatistika, shuningdek, tilni oʻrganishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi, bu esa katta hajmdagi maʼlumotlar ustida ishlashni ancha osonlashtiradi.

Lingvostatistik metoddan amaliyotda foydalanish uning mohiyatini, tarixini, tamoyillarini va asosini mazmunan tushunishdan boshlanadi. “Maʼlumki, “statistika” atamasi lotincha “status” soʻzidan olingan boʻlib, hodisalarning holati, ahvolini bildiradi. Keyinchalik “status” soʻzi negizidan “stato” – davlat, “statusta” – davlatni biluvchi, “statistika” – davlat toʻgʻrisidagi muayyan maʼlumotlar yigʻindisi, degan tushunchalar kelib chiqqan. Hozirgi vaqtda statistika deyilganda, quyidagilar tushuniladi: a) oʻz obykti va usuliga ega boʻlgan mustaqil fan: b) amaliy faoliyatdagi mustaqil tarmoq, yaʼni Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, viloyatlarda iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmalari, tumanlarda iqtisodiyot va statistika boʻlimlari; d)

ijtimoiy hayotning turli tomonlarini ta'riflaydigan umumiy ko'rsatkichlar, statistik raqamlar." [1; 6] O'z navbatida jamiyatni deyarli barcha tarmoq va sohalarida statistika me'yor va qonuniyatlariga ko'ra aniq yo'l – metod sifatida namoyon bo'ladi. Statistik metodlar ma'lumotlarni tahlil qilish va ular asosida xulosalar chiqarish uchun ishlatiladigan matematik usullardir. Bu metodning tub o'zagi bir necha bosqichli vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Ma'lumotlarni to'plash: Tadqiqot uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yig'iladi. Bu ma'lumotlar so'rovlar, eksperimentlar, kuzatishlar yoki mavjud ma'lumotlar bazalaridan olinishi mumkin.

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish: Yig'ilgan ma'lumotlar ustida turli statistik tahlillar o'tkaziladi. Bu tahlillar orqali ma'lumotlar o'rtasidagi munosabatlar, umumiylik va xususiylik kabi dialektik aloqalar aniqlanadi.

3. Model yaratish: Statistik modellar yordamida ma'lumotlar tahlil qilinadi va kelajakdagi voqelikni bashorat qilish uchun ishlatiladi.

4. Xulosalar chiqarish: Tahlil natijalariga asoslanib, ilmiy yoki amaliy xulosalar chiqariladi.

Statistik metod ichki tizim asosiga ega bo'lib, bir-biriga bog'liq va yondosh bo'lgan tahlil usullaridan iborat. Chastota, dispersiya, korrelatsiya, regressiya kabi tahlil turlari statistik metodning ma'lumotlar bilan ishlash qamrovini belgilaydi.

XXI asrda kompyuter lingvistikasi sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu soha til materiallarini kompyuter yordamida tahlil qilishni o'z ichiga oladi va lingvostatistika bilan o'zaro bog'liqdir. XX asrning 30-40-yillarida I.Kissen lingvostatistikaning asoschisi sifatida tanilgan. Keyinchalik, 60-70-yillarda lingvostatistik tadqiqotlarni S.Rizayev, S.Muhammadiyev, S.Otamirzayeva kabi olimlar olib borgan. Bu bo'yicha maxsus laboratoriya tashkil etilgan va mustaqillik yillarida ushbu sohaga yana e'tibor qaratilgan. [5]

O'zbek tilshunosligida lingvistik statistikaga asoslangan ilmiy ishlar o'tgan asrning 50-yillarida ommalasha boshlagan. Matn tilshunosligining shakllanishi va matn tahlili bilan bog'liq tadqiqotlarning birlamchi bosqichida lingvistik statistika til va nutq birliklarining matnda qo'llanish darajasini aniqlashda ko'p qo'llanildi. "O'tgan asrning 20-30-yillaridan boshlab o'zbek olimlari til hodisalarini o'rganishda statistik metodlardan foydalanishgan. O'zbek matbuoti tilining leksik tarkibini o'rgangan V.V.Reshetov o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib lingvostatistik metoddan foydalanishni boshlab bergan edi. " [2; 23] Bu yo'nalishda A. Borovkov, F.Abdullayev, M.Mirzayev kabi olimlar (matbuot tilining leksik tahlilida), I.Rasulov (o'zbek tilida harbiy leksika tadqiqida), G.Muhammadjonova (o'zbek tilida ruscha-baynalminal leksikani miqdoran o'rganishda), B.Bafoyev (Alisher Navoiy asarlari leksikasi tadqiqida), I.Mirzayev (she'riy matnlarning leksik va morfologik tahlilida), Sh.Egamova (Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqida) kabi olimlar samarali natijalarga erishishdi. O'zbek tilshunosligida lingvostatistik metoddan oqilona foydalanish asosidagi leksikografik ishlarda bir guruh olimlarning sa'y-harakatlari bilan "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati" (2001) yaratildi. Chastotali lug'atlarning shakllanishi ham aynan lingvistik statistikaga asoslanadi.

Tilshunoslikka yangi talqinlar va qarashlarni tezkor va shiddatli zamonga mos ravishda tatbiq etayotgan jahon lingvistikasida statistik metoddan foydalanish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tilni modellashtirish, kompyuter va korpus lingvistikasini rivojlantirish lingvostatistika orqali ko‘zlangan natijani beradi. Bunda miqdor va sifat (mohiyat) uyg‘unligi, umumiylik va xususiylik, tizimlilik va yaxlitlik o‘zaro taqqoslashlar, tahlillar asosida har qanday tadqiqot ishini osonlashtiradi. “...sifat tahlilining miqdoriy tahlildan farqi shundaki, bunda ma’lumotlarda topilgan yoki aniqlangan til belgilariga chastotalar, foizlar va shunga o‘xshash matematik amallar orqali yondashilmaydi. Miqdoriy tadqiqotlarda lingvistik xususiyatlar tasniflanadi, hisobga olinadi va bu kuzatilgan faktlarni tushuntirish uchun yanada murakkab statistik modellar tuziladi.” [3; 233].

So‘nggi yillarda tilshunoslar bir necha sabablarga ko‘ra statistik metoddan foydalanishmoqda: birinchisi – lingvistik farqlanishni aniqlashda, jumladan, nutq shakllari – og‘zaki va nutq farqlanishida muayyan til birliklarining nutqiy xoslanishi qay darajada ekanligi statistik tahlilga tayangan holda amalga oshadi. Nutq shakllariga asoslangan ilmiy ishlarda og‘zaki va yozma nutq birliklarining nutqiy holati – tildan foydalanuvchilarning yoshi, jinsi, adabiy va umumiste‘mol tarkibga oidligi, ijtimoiy jarayonlardagi namoyishi, turli uslublarga mansubligi nuqtayi nazaridan qo‘llanish darajasini aniqlash amaliy tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, tilni o‘qitish yoki o‘rganishda qaysi metod orqali harakatlanish samaradorligi empirik tarzda taqqoslashlarda statistik tahlilga tayanadi. Ayniqsa, til o‘qitish jarayonida leksik va grammatik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda “oddiydan murakkabga” tamoyilini qo‘llash, dastlab, til birliklarini nutqda qo‘llanish darajasini aniqlash, ularni faol va nafaollik xususiyatiga ko‘ra aniq tizimga joylashtirishni taqozo etadi. Fonetik, leksik va grammatik til birliklarining nutqda qo‘llanish darajasi statistik metodning chastota tahlili asosida amalga oshadi. Tilshunoslikda chastotalar, tilning turli jihatlarini tahlil qilish va tushunish uchun juda muhimdir. Chastota tahlilidan tilshunoslar quyidagi maqsadlarda foydalanishlari mumkin:

a) So‘z va iboralarning qo‘llanish darajasini aniqlash: Og‘zaki va yozma nutqda so‘z va iboralarning qo‘llanish darajasini aniqlash orqali tilning leksik xususiyatlarini tahlilga tortish;

b) Til o‘zgarishlarini tadqiq etish: Vaqt o‘tishi bilan tilning qanday o‘zgarayotganini kuzatish, yangi so‘zlar va iboralar qanchalik tez yangilanayotgani yoki eskirayotganini tahlil qilish;

c) Til qoidalarini tizimlashtirish: Grammatik qoidalar va sintaktik tuzilmalarning qo‘llanish darajasi va tilning qurilish qonuniyatlarini amaliy jihatdan osonlashtirish;

d) Til birliklari va ularning variantlarini solishtirish: Turli shevalar yoki tillar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashda chastota tahlili muhim ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda statistikadan foydalanish empirik tadqiqotlarda shaffoflikni ta‘minlaydi. Lingvistik statistikadan foydalanishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq:

- **Namunaviylik:** Tadqiqot uchun tanlangan ma'lumotlar to'plami, o'rganilayotgan til segmentining xilma-xilligini va turli ijtimoiy guruhlarni aks ettirishi kerak.

- **Xilma-xillik:** Ma'lumotlar to'plami, tilning keng doirasini qamrab olishi va umumiy xulosalarga ega bo'lishi uchun yetarli darajada katta va xilma-xil bo'lishi kerak.

- **Xolislik:** Tadqiqot natijalari, tadqiqotchining shaxsiy fikrlari yoki oldindan qabul qilingan taxminlardan xoli bo'lishi lozim.

- **Aniqlik:** Ma'lumotlar to'plami va tahlil usullari, tadqiqot savollariga aniq va ishonchli javoblar berish imkonini taqdim etishi kerak.

- **Takrorlanuvchanlik:** Boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilganida ham xuddi shunday natijalarga erishish imkonini beruvchi tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqilishi shart.

- **Ishonchlilik:** Tadqiqot natijalari tasodifiy emas, balki ma'lum bir darajada ishonchli statistik ahamiyatga ega bo'lishi zarur.

Xulosa shuki, tilshunoslikda statistik metoddan foydalanish tadqiq va tahlilga tortilayotgan ma'lumotlarni – til birliklarini miqdoran aniqlashtirish, tartibga solish, tizimlashtirish va modellashtirish orqali ularni zamonaviy talqin – kompyuter va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishiga yo'l ochadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev Y. Statistika nazariyasi (darslik). – Toshkent, 2002.
2. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 273
3. Pascaul Cantos. Do we need statistics when we have linguistics? // www.researchgate.net, 2002 (January).
4. Shravan Vasish, Bruno Nicenboim. Statistical methods for linguistic research: Foundational Ideas - Part I // 2022.
5. Yo'ldoshev B. Kompyuter lingvistikasi: muammo, yechim va istiqbol // "Ma'rifat" gazetasi, 2013 (Oktabr).
6. Yo'ldoshev B. Matni o'rganishning lingvostatistik metodlari. Uslubiy qo'llanma. 1-qism. – Samarqand: SamDU nashri, 2008. – B.90.

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA OZIQ-OVQAT MAVZUSIDAGI MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Nargiza Aytiniyazova
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan maqollarga to'xtalangan. Oziq-ovqat nomlari ishtirok etgan o'zbek va qoraqalpoq maqollaridan namunalar keltirilib, lingvomadaniy aspektida qiyosiy tahlil etilgan.

III SHO‘BA. O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI

Asilova G. O‘zbek tilini mutaxassislik tili sifatida o‘qitishda loyihaviy faoliyatni modellashtirish.....	69
Ahmedova G. Muomala odobiga oid vaziyatlar va qolip gaplarning qo‘llanilish xususiyatlari.....	71
Khidoyatova D. Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	80
Turdiyeva K. Tibbiy yo‘nalishdagi rusiyzabon talabalarga o‘zbek tili darslarida tarqatma material bilan ishlash samaradorligi	83
Kadirova X. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda mustaqil ta’limning ahamiyati.....	86
Bazarova D. Ta’lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda “O‘zbek tilida so‘z tarkibi” mavzusini o‘rgatish tajribasidan.....	93
Iskandarova G. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish.....	95
Tursunova J. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda realiyalarning o‘rni.....	100
Shodmanov T. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	102
Abdirashidova D. Tibbiyot yo‘nalishlari talabalari uchun o‘zbek tili ta’limida tasviriy matnlarning ahamiyati	106
Fayzullayeva N. Boshlang‘ich sinflarda o‘zbek tili darslari orqali mustaqil fikrlashga o‘rgatish.....	110

IV SHO‘BA. O‘ZGA TILLI GURUHLARDA ADABIY O‘QISH MUAMMOLARI

Musulmanova N. Filologiya yo‘nalishi rusiyzabon guruhlarida o‘zbek adabiyoti fanini o‘qitishda asar tahlili muammolari	113
Isayeva Sh. Adabiy o‘qish darslarida ruhiyat masalalarining o‘rganilishi.....	116
Rasulova S. G‘arb adabiyotida sharqona asarlar talqini (V.Irving “Al-hamro” kitobining novellalari misolida).....	121
Do‘smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	128
Turakulova O. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida adabiy o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	131
Davronov A. O‘zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o‘rgatish.....	134
Аликулова М. Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	137
Abilxayrova S. O‘zbek tili darslarida matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini interaktiv metodlar asosida o‘rgatish (umumta’lim maktablari 7-sinflari misolida).142	

V SHO‘BA. TILNI ILMIY TADQIQ QILISH MASALALARI

İbrahimova S. Feilin növ kateqoriyasının oğuz qrupu türk dillərində yeri.....	146
Məmmədov X., Kadirova X. X (iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	152
Elova D. O‘zbek tilining rəsmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	157
Abdulahimova O. O‘zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	167
Yo‘ldosheva Y. Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	171
Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	175
Aytneyazova N. O‘zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	179
Xamrayeva Z. Complex syntactic wholes and their specifics.....	183
Xaydarova I. Morfemaning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish tarixi.....	186
Xo‘jayev N. O‘zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	189
Жарқын Арайлым. Саяси коммуникация және саяси дискурс	194
Beysenova A. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	202



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

OYDINNISO NASIRDINOVA

“O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta’lim nazariyasi va amaliyoti”
xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumanida faol ishtirok etganligi uchun

SERTIFIKAT

bilan taqdirlanadi

2024-yil 16-aprel

Rektor



Sh. Sirojiddinov

